

**TARJIMA JARAYONIDA YUZ BERADIGAN MADANIY  
TUSHUNMOVCHILIKLAR (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)**

*Zikirova Nozima Muzaffar qizi*

*Termez University of Economics and Service*

**Annotatsiya:** quyida berilgan maqolada tarjima va madaniyatlararo muloqotning uzviy bog'liqligi hamda tarjima jarayonida kelib chiqayotgan ayrim muammolar haqida bayon etiladi.

**Kalit so'zlar:** til, tarjima, madaniyatlararo muloqot, madaniyat, madaniy tushunmovchiliklar, tarjimon.

Tarjima — bir tildagi matnni boshqa tilda qayta yaratishdan iborat adabiy ijod turi. Tarjima - millatlararo muloqotning eng muhim ko'rinishi. Asliyat va qayta tiklangan matn xususiyatiga qarab badiiy tarjima, ilmiy tarjima va boshqa turlarga ajratiladi.

Bugungi globallashtirilgan davrda dunyo tillarini o'rganish va mamlakatlar bilan turli sohalarda muloqot qilish jarayoni so'nggi yillarda sezilarli ko'rsatgichlarda o'sib bormoqda. Bunday jarayonlarni yuzaga keltirib chiqarayotgan eng asosiy omillardan biri til deb hisoblasak, ingliz tili allaqachon butun dunyoni birlashtiruvchi jahon tiliga aylanishga ulgurdi.

Ilmiy nuqtai nazardan olib qaraydigan bo'lsak, aynan, til, madaniyat va tarjima uchburchaki madaniyatlararo muloqot jarayonini yuzaga keltirib chiqarmoqda. Madaniyatlararo muloqot bu - turli madaniyat vakillari o'rtasida amalga oshiriladigan muloqotdir. Til va madaniyat o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lib, tarjima madaniyatlar o'rtasini bog'lovchi ko'priq hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, tarjima jarayonidagi tarjimonning muvaffaqiyati uning o'zga madaniyat haqida qanchalik fikrga ega ekanligi va muloqot jarayonida buni ko'rsata bilishiga bog'liq. Tarjimadagi ko'plab muammolarning sababi ham madaniyatlar haqidagi tushunchaning turli xilligidan yuzaga kelmoqda.

Badiiy adabiyotdagi yozma tarjimalarga to'xtaladigan bo'lsak, ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan asarlarning aksar qismi to'g'ridan to'g'ri emas, balki rus



tilidan tarjima qilingan. Natijada, asar o'zining yaralgan madaniyatidan va tilidan emas, vositachi madaniyat va til orqali o'zbek tilida paydo bo'lmoqda. Bunday asarlardan birini misol qilib keltiradigan bo'lsak, taniqli ingliz yozuvchisi Oskar Uayldning "The portrait of Dorian Gray" asarini Ozod Sharafiddinov rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilgan. Amerikalik tarjimon Venuti Lourensning fikriga ko'ra, tarjima qilingan asar o'quvchida boshqa madaniyatni tasavvur qilish imkonini berishi kerak.

Madaniy kontekstlarni tarjima qilishda bir qancha qiyinchiliklar mavjud. Tarjima jarayonida tarjimonni eng ko'p qiynaydigan muammolardan biri tilda idiomatik va paremiologik birliklarning ko'pligidir. Aynan bir tilda uchraydigan va tarjimada ma'nosi o'zgarib ketadigan birliklar, maqol va matallarning ekvivalentini topib aynan tarjima qilinayotgan tilning madaniyatiga moslashtirish tarjimonlardan kuchli bilim va salohiyat talab qiladi, bordi-yu, shunday o'rinlarda tarjimonning tajribasizligi yoki e'tiborsizligi tufayli biror xatoga yo'l qo'yilsa, bu madaniyatlararo tushunmovchiliklarga va ziddiyatlarga sabab bo'lib qolishi mumkin. Bunday nozik jihatlar nafaqat yozma tarjimada balki og'zaki tarjimada ham e'tiborga olinishi kerak. Misol uchun, ingliz tilidagi "East or West, home is the best" birikmasi o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilinsa "Sharq yoki g'arb, uy eng yaxshisi" degan tarjima kelib chiqadi. Ammo bunday sayoz tarjimani matnda qo'llash qo'pol xato hisoblanadi va tarjimonning uquvsizligini ko'rsatib beradi. Professional tarjimon bunday birliklarga duch kelganda, albatta uning o'zbek tilidagi ekvivalentiga yuzlanadi. Aynan ushbu birikmaning o'zbek tilidagi ekvivalenti "O'z uying o'lan to'shaging" maqoli bilan beriladi.

Tarjimaning yana bir qiyin jihati manbaning va tarjima qilinayotgan tilning urf-odatlarini, qonunlari, e'tiqodlari va qadriyatlarining xilma-xilliligidir. Tarjimonlar ushbu farqlarni bilishlari va tarjima qilayotgan matnini shunga moslashtirishlari kerak bo'ladi. Masalan, diniy jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, musulmon bo'lmagan mamlakatlarda yoyilgan dinga oid atamalarni tarjima qilganda tarjimon aynan islom dinida uchraydigan atamalar bilan emas aynan ularning e'tiqodi bo'yicha tarjima qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Paulo Koeloning "Alkimyogar" asarida kelgan "God" so'zi, o'zbek tiliga "Alloh" deb tarjima qilingan. Fikrimcha, bu holatda "God" so'zini "Xudo" deb tarjima qilish, ikki turli madaniyat va dinning ham qarashlarini o'z o'rnida qoldirgan bo'lar edi. Bu kabi madaniy tushunmovchilar yuzasidan ko'plab olimlar o'z tadqiqot va izlanishlarini olib brogan. Shunday tadqiqotchilardan biri Satisha o'zining



“Linguistic and Cultural challenges faced by translators” nomli ilmiy ishida aynan turli xil til va madaniyatlarning urf-odat va an’analari, bayramalari va mashg’ulotlari haqida yoritgan.

Tarjima haqidagi ilk fikrlar qadim Rimda yuzaga kelgan. Aristotel, Sitseron va Goratsiyalar tarjimashunoslik sohasining dastlabki namoyandalari hisoblanadi. Ular tarjima jarayonida so‘zma- so‘z tarjimadan foydalangandan ko‘ra, uning ma’nosini saqlashni ma’qul ko‘rganlar. Keyinchalik Italiya, Fransiya, Angliya, Germaniya va Rossiyada tarjima haqidagi nazariy tushunchalar paydo bo‘lgan. Dastlabki tarjimonlar Misr, Mesopotamiyada bo‘lgan degan farazlar mavjud, lekin ularning kimligi va qilgan tarjimalari ma’lum emas. 1953- yili Xalqaro tarjimonlar uyushmasi FIT ( Federation Internationale des Traducteurs) ning tashkil qilinishi tarjimon va tarjimashunoslar faoliyatining yanada ravnaq topishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Shuningdek, 20-asr o‘zbek yozuvchilaridan Cho‘lpon, G‘.G‘ulom, Oybek, A. Qahhor, Mirtemir, M. Shayxzoda, M. Ismoilov, A. Muxtor, E. Vohidov, A. Oripov va boshqalar badiiy tarjima sohasida samarali ijod qilganlar. Shundan beri tarjima vaqt o‘tishi bilan rivojlanib kelib hozirda biz tushunadigan tarjimaga aylandi. 21- asrda ham tarjimaga katta e’tibor qaratildi. Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi qaroriga muvofiq “Davlat tilidan xorijiy tillarga va xorijiy tillardan davlat tiliga professional tarjima qilish uslubiyotlarini yaratish hamda ushbu yo‘nalishda mutaxassislarning malakasini oshirishda ko‘maklashish” ni yaqqol misol qilib olishimiz mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, til va madaniyat bir-biriga chambarchas bog‘liq ikki hodisadir. Bu hodisalarning yoyilishida ishtirok etadigan asosiy jarayon bu – tarjima. Madaniyatlararo muloqotning shakllanishida ishtirok etadiganlar esa tarjimonlardir. Madaniyatlar o‘rtasida sodir bo‘ladigan muammolar va tushunmovchiliklarning oldini olish uchun, avvalo, professional tarjimonlar sonini oshirish lozim. Tajribali va madaniyatlar haqida bilimga ega bo‘lgan tarjimonlar o‘z faoliyatlari davomida yuqorida keltirib o‘tilgan muammolarni oson bartaraf eta oladi. Bugungi kunda ham og‘zaki, ham yozma tarjima jamiyatlar va madaniyatlar uchun muxim omil vazifasini bajarib kelmoqda. Ikki yoki undan ortiq tilni hamda madaniyatni bilgan tarjimonlarga esa eng kerakli shaxslar sifatida qaralmoqda.





**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Суперанская А.В. [и др.]. Общая терминология: вопросы теории. – Изд. 5-е. – М.: Либроком, 2009.
2. Чигашева М.А. Исследование терминологической лексики методом семантического поля. // Вестник РУДН. – Серия: Лингвистика. – 2004.
3. Qushoqovich, A. O. K. (2022). O 'ZBEK TILIDA YILQICHILIKKA OID TERMINLARNING O'RGANILISHI. *Journal of new century innovations*, 18(1), 37-40.
4. Хошимхуджаева, М. М. (2016). Формирование фитонимической лексики узбекского языка. *Российская тюркология*, (2), 74-79.
5. Хошимхуджаева, М. М. (2017). Мотивологический анализ английских, русских и узбекских фитонимов с компонентом-антропонимом. *Проблемы истории, филологии, культуры*, (1 (55)), 369-378.
6. Turaeva, U. (2021). *COMPARATIVE STUDY OF UZBEK AND ENGLISH LEGAL TERMS LEGAL LINGUISTICS: HISTORICAL FOUNDATIONS, BASIC CONCEPTS AND ASPECTS. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities*, 1(1.6 Philological sciences).
7. To'rayeva, U. (2023). *TERMINLAR TARJIMASINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI. Scientific journal of the Fergana State University*, (4), 64-64.
8. UMIDA, T. *Characteristics, Methods and Challenges of Translating Law Terminology. JournalNX*, 6(11), 312-316.]
9. Абдиназаров, У. (2023). *INGLIZ VA O 'ZBEK TILLARIDA GIPPOLOGIK TERMINLARNING LINGVISTIK TADQIQI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(9).
10. Raimov, L. (2023). *THE BASIC BRANCHES OF LINGUISTICS. Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(11 Part 3), 178-180.
11. Raimov, L. (2023). *NATIONAL SPECIFICITY AND UNIVERSAL PROPERTIES OF VERBS WITH A SENSITIVE BASE OF RELATIONSHIPS IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. Interpretation and researches*, 1(12).

